




International Scientific and Practical Conference on the
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"



RICH HISTORICAL AND CULTURAL HERITAGE OF KOKAND CITY

Salimov A.M.

Tashkent University of Architecture and Construction.

Juraev U.Sh.

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan. uktamuktamovich804@gmail.com

Tursunova D.R.

Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan. tursunova1591@gmail.com

Abstract. This article provides preliminary information about the city of Kokand, interesting news about major cultural heritage sites in it, the construction of the Khudoyorkhan Palace, which occupies a leading place among cultural heritage sites in Kokand, an architectural and administrative structure, as well as some suggestions and comments on the protection, conservation, restoration and use of cultural heritage sites.

Keywords: objects of cultural heritage, monuments, preservation, restoration, their use, memorial monuments, Kokand Khanate, Khudoyorkhan Palace, Urda.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekistonda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, saqlash, tiklash va ulardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan asrdagi yirik me'moriy ansambllar va monumental yodgorliklarni saqlab qolgan shaharlardan biri Qo'qon shahridir. Qo'qon shahri – qadimgi Sharqning madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. U Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida, So'x daryosining quyi oqimida joylashgan bo'lib, yigirmaga yaqin millat va elat vakillaridan iborat bo'lgan aholisi 254.7 ming kishini (2020 yil) tashkil etadi [2]. Qo'qon shahri haqidagi ilk ma'lumotlar xitoylik sayohatchi Chjan Szyangga tegishli bo'lib, miloddan avvalgi II asrga to'g'ri keladi. Uning asarida Qo'qon vodiyni yirik va rivojlangan shahri sifatida tavsiflangan. Rus sharqshunosi Iakinf Bichurin ko'plab Xitoy manbalarini, jumladan, Chjan Szyan ma'lumotlarini chuqur tahlil qiladi va bu manbalarda tasvirlangan shahar hozirgi Qo'qon shahri joylashgan hududga mos kelishini tasdiqlaydi. Qo'qon haqidagi ma'lumotlar al Istaxriy, ibn Xavqal'a, ibn Ahmad Maqsidiy, Yoqut Xamaviy, Jamol Qarshiy va boshqa ko'plab ko'zga ko'ringan olim hamda sayyohlarning asarlarida uchraydi. Qo'qon yilnomasida dramatik sahifalar ko'plab topiladi. Jumladan, 1220 yilda shahar mo'g'ul bosqinchilari tomonidan

E-mail address: editor@centralasianstudies.org

(ISSN: 2660-6844). Hosting by Central Asian Studies. All rights reserved..

butunlay vayron qilingan bo'lsa, XII asr Temuriylar davridan boshlab Qo'qon qayta rivojlanishni boshlaydi. Uning rivojlanishi Qo'qon xonligining tashkil topishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, xonlik davrida (1709-1876 yillarda) Qo'qon shahri O'rta Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylangan.

Qo'qon xonlari sulolasida 18 ta hukmdor bo'lib, uning oxirgi xoni Abdulmuzaffar val Mansur Sayyid Muhammad Xudoyorxon bo'lgan. Shahar gullab-yashnashining eng yuqori cho'qqisi sifatida Umarxon xonligi (1810-1822 yillar) davri e'tirof etiladi. Bu davrda shaharsozlik, hunarmandchilik, fan, madaniyat va savdoning jadal rivojlanishi bilan ajralib turgan. Shu bois shahar "chiroyli, yoqimli" degan ma'noni anglatuvchi "Xukandi Latif" nomini olgan. Aynan shu davrda Qo'qon adabiy muhiti ham rivojlana boshladi. Shuningdek ushbu vaqtlarda 52 madrasa, ko'plab karvonsaroylar, bozorlar, hammomlar, boshqa jamoat binolari qurilgan va bugungi kungacha shaharda go'zal me'moriy ko'rinishini saqlab qolgan betakror binolar ko'plab topiladi. Barchani hayratda qoldiradigan, ajdodlarimiz iste'dodi va mahoratni o'zida mujassam etgan obidalar qatoriga: O'rda (Xudoyorxon saroyi), Norbo'tabiy (Mir) madrasasi, Jomiy masjidi, Kamol Qozi, Dasturxonchi va Sohibzoda hazratlari madrasalari, Zinbardor va ko'plab boshqa obidalarni ko'rsatish mumkin [1].

Asosiy qism

Qo'qon shahri o'zinig boy tarixiy an'analarga ega shahar bo'lib, uning hayotida mahallalar alohida o'rin tutadi. Shaharda 61 ta mahalla bo'lib, har birida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faol faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda mahallalar o'zining tarixiy an'analarni tiklash va rivojlantirish markazlariga aylangan. Mustaqillik yillarida shahar tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Ko'plab ishlab chiqarish, madaniy-maishiy ob'ektlar qad rostladi, bog' va xiyobonlar bunyod etildi, suv bo'yi sohillarida esa fuqarolarga dam olish maskanlari yaratilmoqda.

Qo'qon shaharsozligi qadimiy tuzilishni saqlab qolgan bo'lib, u eski va yangi qismlarga bo'linadi. Yangi shaharda XIX asrda savdo korxonalari, ma'muriy binolar, banklar va sanoat binolari qad rostlagan. Yangi shaharda Osiyo banki, Vadyaevlar uyi (hozirgi shahar hokimligi), Potelyahov uyi (hozirgi xalqaro telefon stansiyasi), A.Simxayev uyi (hozirgi neft kolleji), uning ukasi M.Simxayev uyi (hozirgi pedagogika instituti), Mandalaki aka-ukalar binosi (hozir bolalar bog'chasi), Knabe uyi (hozirgi 7-sonli bolalar uyi), shaharning eski qismida esa O'rda nomli xonlar saroyi, asosan XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida qurilgan turar-joy binolari, arxitektura yodgorliklari, masjid hamda madrasa yodgorliklari saqlanib qolgan [4].

Turizm va madaniy meros vazirligining (2021 yil 6 aprelda Shavkat Mirziyoyev farmoniga binoan tashkil etilgan) Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha bosh ilmiy ishlab chiqarish markazi ma'lumotlariga ko'ra, shaharda respublika toifasidagi 9 ta me'moriy yodgorlik, 55 ta mahalliy ahamiyatga ega arxitektura yodgorliklari, shuningdek, 6 ta monumental haykaltaroshlik ob'ektlari davlat himoyasida saqlanadi [6].

Shaharning diqqatga sazovor joylaridan biri bu O'rda bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarmida qurilgan Xudoyorxon saroyidir. Qurilish sun'iy tepalik ustida amalga oshirilgan. Taxminan 14 gektarga teng to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maydonni egallagan saroy ko'p hovlili kompozitsiya ko'rinishida qad rostlagan [10]. Sharqqa qaratilgan asosiy kirish qismidagi darvozaga keng rampa (og'ma qiya yo'lak) orqali boriladi. Kirish qismi (darvozaxona) tepasida arabcha harflar bilan "Arki oliy Said Muhammad Xudoyorxon" (yuqori martabali Said Muhammad Xudoyorxon saroyi) degan yozuvga ko'zingiz tushadi

(1-rasm).



1-rasm. Xudoyorxon saroyining umumiy koʻrinishi

Xudoyorxon oʻrdasi – xonlik tarixida qurilgan yettinchi – oxirgi oʻrda boʻlib, Xudoyorxon taxtga oʻtirgan chogʻlaridanoq Umarxon va Muhammad Alixon xotiralarini yodga olib, shu xarobalar oʻrnida muhtasham bir oʻrda qurishni niyat qilib qoʻygan edi. Shuningdek, Xudoyorxon taxtdan mahrum boʻlib yurgan kezlarda Buxoro va Samarqanddagi qadimdan qolgan goʻzal va ulugʻvor imoratlarni koʻrib, oʻzi ham shunday imoratlar qurishni orzu qilib yurar edi.

Qurilishga Mir Ubaydullo muhandis bosh meʼmor, mohir usta va naqqosh, xattot Muhammad Turdiali sarkor etib belgilandi. Qurilishda meʼmorlar, ustalar va mardikorlar xizmatidan tashqari, hasharchilar kuchidan ham foydalanildi. Shahar mahallalari va atrof-qishloqlar aholisi maʼlum muddat asosida navbati bilan hasharda qatnashar, hasharga qatnashmagan oʻziga toʻq kishilar esa ot-arava va yeguliklar yuborib turishgan.

Oʻrdaning qurilish ishlari usta Muhammad Turdiali va Mir Ubaydullo Muhandis boshchiligida quyidagi meʼmor va ustalar tomonidan olib borilgan:

- Koshin ishlari: Usto Abdullo Roshidoniy, aka-uka usta Jalil va usta Jamil, usta Zokir;
- Gilkorlik (gʻisht urish) ishlari: Azamat Domullo, Mullo Saidqul va Mullo Suyarqul, usta Solixoʻja, Isavoy Mahzum, Mullo Ahmad Domullo, usta Mamasodiq, usta Soʻfi Yoʻldosh, usta Hakimjon, usta Marasul;
- Ganch va naqsh (sir) hamda xattotlik ishlari: Mulla Turdiali, Muhammad Olim sirchi;
- Yogʻoch va yogʻoch oʻymakorligi ishlari: usta Muhammadniyoz Pangʻoziy va uning oʻgʻillari, usta Meliboy, usta Mahsumxoʻja va boshqa ustalar tomonidan olib borildi.

1865 yilda boshlangan qurilish 1870 yilda yakunlandi. Sayyid Muhammad Xudoyorxon xalqqa katta ziyofat berib, yangi oʻrdaga koʻchib oʻtdi. Ziyofat chogʻida ustalarga mukofotlar berdi.

Meʼmoriy tuzilishi

1876 yilda kapitan N.N.Voronets va keyinchalik topograf A.I.Borisovskiylar tomonidan tuzilgan Qoʻqon Oʻrdasining bosh rejalarida butun hudud mustahkam devor va darvozalar bilan oʻralganligini, saroy oldidagi bosh maydonni, shuningdek, saroy bogʻlari va kazarmalarni koʻrish mumkin.

Oʻrda binosi oʻz davrining yirik saroy inshootlaridan boʻlib, maydoni oʻn toʻrt (atrofi bilan oʻn sakkiz) gektarni tashkil etgan. Atrofi qalʼa sifatida baland imoratlar, qalin devorlar bilan oʻrab olingan.

Devor tashqarisidan choh (ariq) qazilib, Ulkansoydan chiqarilgan anhor mazkur chohdan oqizilgan. Bu ham o'ziga xos mudofaa vositasidir. Inshoot to'rt tarkibiy qismdan iborat bo'lgan (2-rasm):

1. Tashqi saroy (qal'a)
2. O'rta saroy
3. Ichki saroy
4. Bog'



2-rasm. Xudoyorxon saroyining maketi

Tashqi, o'rta va ichki saroylarning sharq tomonga qaragan va bir o'q yo'nalishida joylashgan o'z darvozasi bo'lgan. Birinchi darvoza hozirgi istirohat bog'ining ramziy darvozasi o'rnida joylashgan. Yuzdan ortiq xonalarni o'z ichiga olgan saroyning murakkab rejasi 68x143 metr o'lchamdagi to'g'ri to'rtburchak shaklidagi hududga joylashtirilgan. Rasmiy marosim va tadbirlar hamda turar-joylar funksional jihatdan ajratib loyihalangan. Saroyning birinchi yarmida atrofi ayvonli rasmiy hovli, qabulxona (ko'rinishxona), xazina (zarrinxona) va alohida hovlili masjid bo'lgan. Markaziy qismida esa qabulxona (salomxona) uchun kichik zal, xon uchun bir qancha turar-joy xonalari (shohnishin) va omborxonalardan tashkil topgan xo'jalik hovlisi qurilgan. Saroyning ikkinchi yarmini bir-biriga bog'langan uchta hovlili haram egallagan. Bu erda xonning qonuniy xotinlari, xizmatkorlar va 40 ta kanizaklar yashagan. 1878-yilda Qo'qonga tashrif buyurgan Mari Burdonning "Parijdan Samarqandgacha" kitobidagi rasmlarga qaraganda, haram binolari ikki qavatli bo'lib, ikkinchi qavatida yozgi ayvonlar, pavilionlar va o'tish joylari bo'lgan.

Ma'muriy tuzilishi

O'rda binosi ma'muriy jihatdan ham bir necha yirik qismlarga bo'linadi:

1. Qal'a (harbiy qism)
2. Davlatxona
3. Haram
4. Shahnishin
5. Xo'jalik bo'limi
6. Ma'naviy bo'lim

Ushbu ma'muriy qism (bo'lim)lar inshootning turli me'moriy qismlariga joylashgan. Mazkur

bo‘limlar ham o‘z navbatida ko‘plab qismlardan iboratdir.

Xulosa

O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarni va aholi punktlarini asrab-avaylash muammosi yechimida madaniy meros yodgorliklarining o‘rni katta ahamiyatga ega. Vaqt o‘tishi bilan shahar va qishloq aholisining aholi punktlarini rejalashtirish, bino va inshootlarning funktsional maqsadiga bo‘lgan talablarni o‘zgarishida bosh omil bo‘lmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, transportning rivojlanishi, jamiyatning yangi ijtimoiy talablari shahar va qishloq muhitini yangilash, qayta tiklash vazifalarini ilgari surmoqda. Agar bu muhit qimmatli, estetik jihatdan mazmunli, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lsa, mazkur tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish yanada dolzarblashadi. O‘ylanmagan, asossiz qayta qurish ishlarida ko‘pincha madaniy meros jiddiy zarar ko‘radi va buning natijasida ko‘plab tarixiy manzilgohlar tuzatib bo‘lmas darajada shikastlanadi. O‘zbekiston aholisi o‘zining boy me‘moriy, tarixiy merosini qadrlaydi, yodgorliklari qayta tiklanayotganligidan faxrlanadi, madaniy meros obyektlarining o‘ziga hosligi inobatga olgan holda yangi qurilish ishlarini olib boradi, noo‘rin loyihalash va qurilish ishlariga duch kelganda o‘zining salbiy munosabatini bildiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salimov A.M. “O‘zbekiston arxitektura yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish”. Monografiya. Toshkent; “Navro‘z” nashriyoti, 2020, 320 bet.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBqon>
3. Tursunova, D. (2021). Architectural history of margilan city: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1231>. In Research Support Center Conferences (No. 18.05).
4. O.M.Salimov, D.Tursunova, The problems of preservation and use of architectural monument of the Ferghana region. EPRA International Journal of Multidisciplinary research Monthly Peer Reviewed and Indexed International online Journal. Volume:6 Issue:2 February2020 263,264,265,266
5. Жураев, У. Ш., & Турсунов, К. К.,(2020). ФарФОНа вилояти тарихий шаҳрларидаги турар-жой биноларида ганч ва ёғоч уймакорлигининг шаклланиши ва ривожланиши. Science and Education, 1(3), 264-267.
6. Tursunova, D. (2021, June). Architectural history of Margilan city. In Конференции.
7. Муслимович А.С., Рауфжонова Т.Д. (2020). Методы оформления архитектурной школы Ферганской долины. Американский журнал прикладных наук , 2 (12), 21-25.
8. Djhalolovich, A. J., & Shavkatovich, J. U. (2022). Qadimgi va o‘rta asrlarda samarqand shahri hududida landshaft arxitekturasining shakllanishi. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(2), 82-89.
9. Жўраев, У. Ш. (2022). Формирование Исторического Города Кувы Ферганской Области. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 123-126.
10. О.М. Салимов, Д.Р. Турсунова. Проблема сохранения и использования памятников архитектуры Ферганской области. Меъморчилик ва курилиш муаммолари Илмий техник журнал 2020 йил.